



**IQTIDORLI TALABALAR,
MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANT VA DOKTORANTLARNING
“TAFAKKUR VA TALQIN”**

**MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA MIQYOSIDAGI
ILMIY-AMALIY ANJUMAN
TO‘PLAMI**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

MAGISTRATURA BO‘LIMI

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR,
TAYANCH DOKTORANTLAR VA
DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN
mavzusida

*respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami*

Buxoro 2025-yil, 15-may

3. Гулямов Я.Г. *Древнехорезмийская культура эпохи бронзы*. – Ташкент: АН УзССР, 1957.
4. Атаева Т.А. *Поселения эпохи бронзы Южного Туркменистана*. – Ашхабад: Илим, 1984.
5. Виноградова Н.М. *Погребальный обряд и социальная структура в бронзовом веке Средней Азии*. // Археология евразийских степей, 2003.
6. Дубова Н.А., Рыкушина И.В. *Некрополь Гонур-депе: структура и особенности*. – М.: РАН, 2007.
7. Массон В.М., Пьянков И.В. *История древнего Востока: Средняя Азия*. – СПб: Изд-во СПбГУ, 2000.
8. Кузьмина Е.Е. *Происхождение индоиранцев: археологические и лингвистические подходы*. – М.: Наука, 1994.

O'ZBEKISTON GILAM ISHLAB CHIQARISH SANOATI HOLATI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.

Muxitdinova Lobar Solixovna

Buxoro Davlat Universiteti

Iqtisodiyot (tarmoqlar va sohalar)

mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

[*l.s.muxitdinova@buxdu.uz*](mailto:l.s.muxitdinova@buxdu.uz)

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekistonda adolatli va raqobatbardosh bozor iqtisodiyotini shakllantirish yo‘lida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar yoritilgan. Raqobat muhitini yaratish va monopoliyaga qarshi qonunchilikning ahamiyati, ularning bozor ishtirokchilari uchun teng sharoitlar va innovatsion rivojlanishni ta‘minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, maqolada to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoatining, ayniqsa gilamchilik sohasining bugungi holati, yutuqlari va rivojlanish istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Statistika va raqamli ma‘lumotlar asosida gilam ishlab chiqarish va eksport hajmlarining o‘shishi, yetkazib berish geografiyasi, asosiy importchilar tahlil qilinadi. Shu bilan birga, sohada mavjud muammolar yoritilgan va gilamchilik sanoatining barqaror rivojlanishini ta‘minlash uchun tadbirlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Raqobat, raqobat muhiti, gilam sanoati, innovatsiya, ekologiya, modernizatsiya

Raqobat muhitini yaratish va monopoliyaga qarshi qonunchilikni amalga oshirish O‘zbekistonda adolatli va dinamik bozor iqtisodiyotini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Raqobatni rag‘batlantirish va bozor hokimiyatidan suiste‘mol qilinishiga yo‘l qo‘ymaslik orqali ushbu chora-tadbirlar tadbirkorlik subyektlari uchun teng sharoitlarni ta‘minlash, iste‘molchilar manfaatlarini himoya qilish, innovatsiyalar va samaradorlikni rag‘batlantirishga qaratilgan. Monopoliyaga qarshi qonunlar, me‘yoriy hujjatlarni qabul qilish va raqobat organlarini tashkil etish orqali O‘zbekiston monopolistik amaliyotlar, kartellar va raqobatga qarshi xatti-harakatlarni cheklashga intiladi. Bozorga adolatli raqobatni rag‘batlantirish, kirishdagi to‘siqlarni kamaytirish va iste‘molchilar farovonligini himoya qilish orqali O‘zbekiston iqtisodiy o‘shishni ta‘minlovchi, innovatsiyalarni rag‘batlantiradigan va fuqarolarning umumiy farovonligini oshiradigan muhitni yaratishni maqsad qilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2020 yildagi PF-6019-son “Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq tovar va moliya bozorlarida monopoliyani bosqichma-bosqich kamaytirish orqali samarali raqobat muhitini yaratish

maqsadida mamlakatimizda iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish, narxni ortiqcha tartibga solishdan voz kechish va davlatning iqtisodiyotga ta’sirini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda[2].

Shu bilan birga, oldimizda davlat ishtirokidagi xo‘jalik yurituvchi subyektlar monopoliyasining iqtisodiyot raqobatbardoshligiga salbiy ta’sirini yanada kamaytirish, imtiyoz va preferensiyalar berish tizimi samaradorligini oshirish, shuningdek tadbirkorlik subyektlariga nisbatan tartibga solish yukini pasaytirish bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan vazifalar turibdi. So‘nggi yillarda to‘qimachilik va tikuv trikotaj sanoatida katta o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunga Hukumat tomonidan soha tadbirkorlariga yaratilgan keng imkoniyatlar, investitsion muhitning yaxshilanishi va tashqi bozorlarga chiqishda olib borilgan siyosat va “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi va korxonalar tomonidan ishlab chiqilgan Rivojlanish strategiyasi asosiy omillaridan biri bo‘ldi.

Ayni damda “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasida 1970 dan ortik yirik to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalari qamrab olgan. Hozirda tarmoq korxonalarining respublika bo‘yicha umumiy soni 7000 ortiq. So‘nggi yillar mobaynida sohada keskin o‘garishlar ro‘y berdi va buning natijasida 3.2 mlrd.dollar xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi, mahsulot eksporti 2.1 mlrd.dollarga etkazildi, 360 mingdan ortiq kishi sohada faoliyat yuritib kelmoqda. Respublikaning barcha xududlarida to‘qimachilik korxonalari tashkil etilib iqtisodiyotning drayver sohalardan biriga aylandi [].


O‘zbekiston gilam sanoati mamlakatning eng qadimiy hunarmandchilik yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, asrlar davomida shakllanib kelgan madaniy va estetik qadriyatlarni o‘zida mujassam etgan. So‘nggi yillarda gilamchilik sohasi nafaqat madaniy meros sifatida, balki iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan imtiyozlar, yangi texnologiyalarni joriy etish, hunarmandlarni qo‘llab-quvvatlash orqali soha jadal rivojlanmoqda. Gilam ishlab chiqarish to‘qimachilik sanoatining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Gilamchilik sanoati - tabiiy (jonivorlar va o‘simliklardan olinadigan tolalar) va sun‘iy tolalardan foydalanib turli xildagi gilamlar ishlab chiqaruvchi sanoat tarmog‘i hisoblanadi. Gilamchilik badiiy hunarmandlik sohasi sifatida turli davlatlarda o‘ziga xos shaklda rivojlanib kelgan.

2024-yilda O‘zbekiston gilamchilik sanoati mavjud muammolarga qaramay, sezilarli o‘sish va rivojlanishni namoyish etdi.

2024-yilning yanvar-iyun oylarida O‘zbekistonning yirik korxonalari tomonidan 16,5 million kvadrat metr gilam mahsulotlari ishlab chiqarildi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 12,4 foizga ko‘pdir.

2023-yilning yanvar-aprel oylarida o‘zbek gilamlari eksporti 15 million dollarga yetdi. Bu ko‘rsatkichlar 2022 yilning shu davriga nisbatan 5,2 million dollarga oshgan.

Yetkazib berish dunyoning 12 mamlakatiga amalga oshirildi. O‘zbek gilamlarini import qiluvchi asosiy davlatlar ulushini 1-rasmda ko‘rishimiz mumkin[10]:



Bunda Qirg'iziston – 7,5 million dollar; Tojikiston – 2,3 million dollar; Ozarbayjon – 1,8 million dollar; Rossiya - 1,5 million dollar; Afg'oniston – 1,1 million dollar; Qozog'iston – 437 ming dollarga gilam mahsulotlarini import qilgan.

Umuman olganda, ushbu davrdagi tashqi savdo hajmi 19,6 milliard dollarga yetdi, bu o'tgan yilgi ko'rsatkichlardan 13,4 foizga ko'pdir. Eksport 7,7 milliard dollarni, import esa 11,9 milliard dollarni tashkil etdi [10].

2024 yilning yanvar-noyabr oylarida gilam eksporti hajmi 7,32 million kv.m ni tashkil etdi. m \$21,8 mln. O'zbek gilamlarining asosiy importchilari 1-jadvalda keltirilgan [10].

1-Jadval

O'zbekiston gilamlarining asosiy importchilari

Ozarbayjon	2 103 ming kv.m.
Qirg'iziston	1 991 ming kv.m.
Afg'oniston	1 226 ming kv.m.
Rossiya	989 ming kv.m.
Qozog'iston	649 ming kv.m..

Ayni paytda faoliyat yuritayotgan qayta ishlash korxonalarida ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar raqobatbardosh bo'lmagani uchun tashqi bozorda u qadar raqobatbardosh emas. Bir so'z bilan aytganda, iste'molchi didiga to'g'ri keladigan sifatli mahsulotlar ishlab chiqarish hali kerakli darajada emas. Buning sabablaridan biri, bu gilamchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda asosiy e'tibor kichik ixtisoslashtirilgan korxonalar faoliyatiga qaratilganligi bo'lib, ular yirik korxonalarning o'rnini bosa olmaydi. Buning bir qancha sabablari bor. Kichik korxonalarda ishchi kuchi 30-40 kishidan oshmaydi. Boshqa tomondan, kichik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar sifati past va hajmi kam.

Bugungi kunda gilam ishlab chiqarishda sifat va narx mutanosibligi, daromad darajasi, aholi va demografik tuzilishi, iqlim va geografik xususiyatlari, dizayn va modaga muvofiqligi, mahsulot brendi, ijtimoiy va ekologik standartlarga muvofiqligi va boshqa raqobatbardosh xususiyat va funksiyalar saqlanib qolishi iste'molchi tanlovida qolmoqda. Mahsulot sifatini oshirish va assortimentini yaxshilash muammolari, birlamchi xomashyo ishlab chiqarishdan tortib to yakuniy tayyor mahsulot chiqarishgacha bo'lgan reja barcha jarayonlar bilan chambarchas bog'liq.

Gilamchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirish uchun ularda tayyorlanayotgan mahsulotlar sifat darajasini oshirish, ularning eksport salohiyatini kuchaytirish muhim masala hisoblanadi [1].

Gilamchilik sanoati duch kelayotgan muammolarni quyida keltirish mumkin:

Ekologik cheklovlar: An'anaviy gilam ishlab chiqarish jarayonlari atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sintetik materiallar, kimyoviy bo'yoqlar va pardoqlash vositalaridan foydalanish xavfli moddalarning suv va havo resurslariga chiqishiga, shuningdek, plastik chiqindilarning to'planishiga olib kelishi mumkin;

Logistik qiyinchiliklar: dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish yo'qligi va murakkab geosiyosiy vaziyat mahsulotlarni eksport bozorlariga yetkazib berish xarajatlari va muddatlarini oshiradi;

Malakali ishchilarning yetishmasligi: ishchi kuchi mavjudligiga qaramay, zamonaviy asbob-uskunalarini boshqarish uchun zarur ko'nikmalarga ega bo'lgan mutaxassislar yetishmovchiligi; Mahsulot sifatini oshirish va assortimentini yaxshilash muammolari: ishlab chiqarishda ishlatilayotgan xomashyolarning sifati har doim ham yuqori emas. Ko'plab korxonalar hali ham eski, eskirgan texnologiyalarga asoslangan uskunalarda faoliyat yuritmoqda, bu esa mahsulot sifati va dizayn imkoniyatlarini cheklaydi, innovatsion dizayn va zamonaviy texnologiyalarning yetarli darajada joriy etilmagani. Jahon bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun gilam mahsulotlari nafaqat mustahkam, balki estetik jozibador, funksional va ekologik toza bo'lishi zarur.

Ishlab chiqarish va eksport hajmining ortishi O'zbekiston ishlab chiqaruvchilarining xalqaro bozorda raqobatbardoshligi ortib borayotganidan dalolatdir. Biroq, mavqeimizni mustahkamlash uchun ishlab chiqarishni modernizatsiya qilishni davom ettirishimiz, infratuzilmani yaxshilashimiz va kadrlar tayyorlashga sarmoya kiritishimiz kerak. Buning uchun gilamchilik sanoati korxonalarida raqobatbardoshlikni oshirish va ularni qo'llab quvvatlash bo'yicha quyidagi xatti – xarakatlarni amalga oshirish va yo'lga qo'yish lozim: ishlab chiqarish jarayoniga tashqi bozor va xalqaro talablarga javob beradigan standartlarni joriy etish;

Respublikada mavjud mahalliy sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish va ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash; eksportchi korxonalar faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini faol davom ettirish; eksportchi korxonalarga ko'rsatilayotgan tashkiliy va moliyaviy yordam berish tizimini takomillashtirish; mahalliy ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni xorijiy davlatlarga chiqarishda ko'maklashish tizimini takomillashtirish.

Xulosa qilib aytganda, gilamchilik sanoati korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari davlat, hududlar va korxonalarning muvofiqlashtirilgan harakatlari orqali uzoq muddatli istiqbolda barqaror raqobatbardosh ustunliklarning yagona mexanizmini yaratish strategiyasiga asoslangan holda uni hal qilishda kompleks yondashuvga asoslanishi kerak. Bozor munosabatlari, tashkiliy – iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish, ijtimoiy muammolarni hal etish, ayniqsa, aholining moddiy ahvolini yuksaltirish, marketing xizmati faoliyatini faollashtirishga muhim o'rin berilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni 28.01.2022 yildagi PF-60-son
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.07.2020 yildagi PF-6019-son "Raqobat muhitini yanada rivojlantirish va iqtisodiyotdagi davlat ishtirokini qisqartirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni
3. Musayeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand-2023
4. Шифрин, М.Б. (2019). Стратегический менеджмент. Издательство Юрайт.
5. Хонкeldieva, G.Sh., Shakirova, Yu.S., (2021). To'qimachilik sanoati
6. korxonalarida eksportbop maxsulotlar ishlab chiqarishni tashkil etish. Monografiya,
7. Farg'ona, AL-FERGANUS.

8. Абдурахманова, Ш. Р., (2022). Повышение конкурентоспособности текстильных предприятий. Наука сегодня: Фундаментальные и прикладные исследования. Материалы международной научно-практической конференции. (Вологда).
9. Musayeva Sh. A. "Gillamchilik sanoatini rivojlantirish maqsadlari va istiqbollari". Journal of marketing, business and management(jmbm)/sjif factor: 5.57. <https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=14002223519073558008&btnI=1&hl=ru>
10. <https://stat.uz/uz/matbuot-markazi/qo'mita-yangiliklar>

TEMURIYLAR DAVRI SOPOLSOZLIK ANʼANALARINING OʻRGANILISHI

BuxDU 1-bosqich magistranti

Shodmonova Latofat Izzat qizi

l.i.shodmonova@buxdu.uz

Kalit soʻzlar: keramika, koshin, plita, kobalt, haftrang, badiiy bezak, rizq guli.

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davriga oid sopolsozlik uslublari, sopol buyumlarning tarkibiy xususiyatlariva bezaklari yurtimizning turli hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari asosida tahlil qilindi. Shuningdek, mazkur davr keramika sanʼati boʻyicha izlanish olib borgan ayrim olimlarning ilmiy xulosalari ham keltirib oʻtildi.

Ключевые слова: керамика, кафель, плита, кобальт, бирюзовый цвет, художественное украшение, орнамент.

Аннотация: В данной статье были проанализированы стили керамического производства эпохи Темуридов, состав и особенности гончарных изделий на основе результатов археологических исследований, проведенных в различных регионах нашей страны. Также приведены научные выводы ряда исследователей, изучавших керамическое искусство данного периода.

Keywords: ceramics, tile, slab, cobalt, turquoise, artistic decoration, motif.

Annotation: This article analyzes the pottery styles, composition, and characteristics of ceramic products from the Timurid period based on the results of archaeological research conducted in various regions of our country. It also presents the scholarly conclusions of several researchers who have studied the ceramic art of this period.

Temuriylar davri nafaqat yurtimiz balki Markaziy Osiyo madaniyati va sanʼati, jumladan, keramika hamda sopol buyumlar ishlab chiqarishda oʻzining yuksak pagʻonasiga koʻtarilgan bir davr hisoblanadi. Bu davrda yaratilgan sopol buyumlar oʻzining nafisligi, bezaklar hamda ishlab chiqarish uslubining takomillashganligi bilan alohida ajralib turadi. Temuriylar davri sopolsozlik uslublari va bezak sanʼati boʻyicha ilmiy tadqiqotlar XIX asrning oxiri va XX asrning boshlaridan boshlanib bugungi kunga qadar davom etib kelmoqda.

Temuriylar davriga oid sopol buyumlarning oʻrganilishi dastlabki davrlarda bevosita rus olimlarning Oʻrta Osiyodagi tadqiqotlari bilan aloqador. XIX asrning ikkinchi yarmida bir qator rus olimlari yurtimiz hududida arxeologik izlanishlar olib bordilar. Shu davrdan boshlab, tarixiy shaharlar hamda arxeologik yodgorliklarni tadqiq etish boshlandi.

M.E.Massonning 1950-1960-yillardagi qazishmalari natijasida Temuriylar poytaxti boʻlgan Afrosiyob xarobalaridan XIV-XV asrlarga oid bir qancha sopol idishlar topilgan. Ular orasida koʻk-oq sirlangan kosa (diametri 18-22 sm) parchalari va yetti xil rang berilgan(haftrang) sopol gʻisht parchalari alohida ahamiyatga ega. Kosaning tashqi qismi geometrik va oʻsimliksimon naqshlar bilan bezatilgan boʻlib, olim bu idishlarni “Xitoy chinnilari taʼsiridagi mahalliy ishlab